



Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi



NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

*2024- yil
yanvar*



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar)




479,7
ming so'm

Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi



65,3%

Xizmatlar
sohasida
kichik
tadbirkorlik
ulushi



69,1%

Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi

Xizmatlar hajmi

1 454,2
mlrd. so'm



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

**Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy
ko'rsatkichlari**
(2024- yil yanvar)


Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2024- y.	2023- y.
Namangan viloyati	1 454,2	111,0	102,7
Namangan sh.	586,0	107,9	103,7
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	54,6	113,8	102,3
Kosonsoy	73,7	114,0	102,1
Namangan t.	75,7	113,1	101,8
Norin	63,8	113,4	101,9
Pop	96,8	114,5	101,5
To'raqo'rg'on	95,2	113,0	102,4
Uychi	85,4	108,6	101,5
Uchqo'rg'on	71,8	113,5	101,8
Chortoq	80,1	114,7	102,5
Chust	96,5	112,8	102,8
Yangiqo'rg'on	74,7	115,0	101,6

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari (yanvar)**

2024- yil hajmi

2023- yil hajmi



**Tuman(shahar)lar kesimida aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar)**

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2024- y.	2023- y.
Namangan viloyati	479,7	108,5	100,5
Namangan sh.	852,6	105,1	101,1
tumanlar:			
Mingbuloq	402,9	111,4	100,1
Kosonsoy	327,1	111,4	99,8
Namangan t.	397,2	110,5	99,5
Norin	366,2	111,2	100,0
Pop	414,6	112,3	99,6
To'raqo'rg'on	392,8	110,3	99,9
Uychi	371,8	106,2	99,1
Uchqo'rg'on	390,9	111,2	99,9
Chortoq	376,8	112,3	100,5
Chust	341,6	110,6	100,9
Yangiqo'rg'on	318,4	112,4	99,4

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	1 454,2	100,0	111,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	80,5	5,5	106,4
Moliyaviy xizmatlar	248,8	17,1	90,2
Transport xizmatlari	259,1	17,8	117,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	217,9	15,0	117,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	34,1	2,3	110,0
Savdo xizmatlari	457,6	31,5	117,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	35,6	2,5	106,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	72,1	5,0	156,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,0	2,4	101,0
Ijara xizmatlari	24,3	1,7	110,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	47,4	3,3	109,2
Shaxsiy xizmatlar	107,6	7,4	114,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	15,0	1,0	117,9
Boshqa xizmatlar	37,1	2,5	111,5


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar)


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni Namangan shahar egallaydi. **2024- yilning yanvar** oyida **21,6 mlrd. soʻmni** tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi



■ 2024- y. ■ 2023- y.


Oʻsish surʼati




■ 2024- y. ■ 2023- y.

Tuman(shahar)lar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar)

Xizmatlar hajmi



Oʻsish surʼati



Moliyaviy xizmatlar (yanvar-dekabr)

2024- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **248,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi

Taqqoslash uchun: 2023- yil yanvar oyida ularning hajmi **260,5** mlrd. soʻmga teng boʻlgan.

2024- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning oʻsishi **90,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar oyida ularning oʻsish surʼati **110,0** % ni tashkil etgan.


Tuman(shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,4 %**.

Namangan shahrida transport xizmatlari hajmi **80,1** mlrd. soʻmni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʼati **123,9 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari (yanvar-dekabr)



Tuman(shahar)lar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar)

Xizmatlar hajmi



Hajmi, mlrd. soʻmda


Oʻsish surʼati



Oʻsish %


2024- yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **77,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari (yanvar)



Tuman(shahar)lar kesimida savdo xizmatlari


(2024- yil yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar)



Xizmatlar hajmi




■ 2024- y. ■ 2023- y.

Viloyatda ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahri ustunlik qilib, **2024- yil yanvar** oylarida unning hajmi 54,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.




Tuman(shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar)

2024- yilning yanvar oyida viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shaharining ulishi salmoqli o'rinni egallaydi. Uning ulushi **46,6** foizni tashkil etdi.




Tuman(shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar)




Xizmatlar hajmi



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar viloyatning umumiy bozor xizmatlari hajmida **2,5** foizni tashkil etdi.

Tuman(shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar)


2023-yilning

yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – **83,4** foiz.

Xizmatlar hajmi



Tuman(shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar)




Ijara xizmatlari (yanvar)



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Tuman(shahar)lar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar, mlrd. so'mda)



 Hajmi, mlrd. so'mda

2023- yilning yanvariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **3,9** mlrd. so'mga kamayib, **24,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar** oyida Namangan shahri va Chust tumanlarining ulushi **32,3** % ni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar

(yanvar)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **26,2** foizini tashkil etadi.

Tuman(shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar (2023- yil yanvar)



2022- yilning yanvarga nisbatan o'rganilayotgan davrda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi **11,0** mlrd. so'mga oshib, **47,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar** oylarida Namangan shahrining ulushi **22,7** % ni tashkil etdi.

 Hajmi, mlrd. so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Tuman(shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar, mlrd. so'mda)




2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 2024-yilning ushbu oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **3,2** mlrd. so'mga oshib, **15,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **86,9** % ni tashkil etdi.




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)




O'sishi, % da



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar)

Soni, birlikda



2024


73,8%

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan ulushi

75,9%


2023

O'sishi, % da





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- fevral holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)



2024

73,1%

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan ulushi

75,2%

2023

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.